

### Adabiyotlar

1. Anderson T. The Theory and Practice of Online Learning. – Edmonton: Athabasca University, «AU Press», 2008.
2. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. 2005.
3. Prensky M. Digital Natives, Digital Immigrants. // On the Horizon, 9(5), 2001, – P. 1-6.
4. Воронов В.В., Шустов А.Ю. Цифровые образовательные платформы: возможности и вызовы. – Москва: «Юрайт», 2020.

**REZYUME.** Ushbu maqolada raqamli platformalarda ta'lim resurslarini moslashtirish jarayonlari, ularning ta'lim jarayonlariga integratsiyasi va ta'lim sifatiga ta'siri tahlil qilinadi. Moslashtirilgan resurslar o'quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etish va sifatni oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada raqamli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari, amaliy tavsiyalar va istiqbolli yo'nalishlar yoritiladi.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье анализируются процессы адаптации образовательных ресурсов на цифровых платформах, их интеграция в учебный процесс и влияние на качество образования. Адаптированные ресурсы способствуют эффективной организации учебного процесса и повышению его качества. Кроме того, в статье раскрываются преимущества использования цифровых технологий, практические рекомендации и перспективные направления их развития.

**SUMMARY.** This article analyzes the processes of adapting educational resources on digital platforms, their integration into the learning process, and their impact on the quality of education. Adapted resources contribute to the effective organization of learning and the improvement of educational outcomes. Additionally, the article highlights the advantages of using digital technologies, practical recommendations, and promising development directions.

## ART-PEDAGOGIKANING O'QUVCHILAR ESTETIK TARBIIYASI VA IJODIY FIKRLASHIGA TA'SIRI

**U.K.Paxratdinova – doktorant**

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti*

**Tayanch so'zlar:** art-pedagogika, estetik tarbiya, san'at ta'limi, ijodiy qobiliyat, maktab ta'limi, integratsiyalashgan yondashuv, pedagogik innovatsiyalar, fanlararo bog'liqlik.

**Ключевые слова:** арт-педагогика, эстетическое воспитание, художественное образование, творческие способности, школьное образование, интегрированный подход, педагогические инновации, межпредметная связь.

**Key words:** art pedagogy, aesthetic education, art education, creative abilities, school education, integrated approach, pedagogical innovations, interdisciplinary connection.

**Kirish.** Art-pedagogikani maktab ta'limining hamma bosqichlariga, shu qatorda, san'atga bog'liq bo'lgan fanlar va an'anaviy darslar jarayoniga samarali tarzda tatbiq etilishi mumkin. Boshlang'ich sinfdan yuqori sinfgacha o'tiladigan darslarda turli badiiy-pedagogik metodlardan foydalanish ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Ushbu metodlar vositasida o'qituvchi o'quvchilarda estetik did va badiiy tafakkurni shakllantirish emas, balki ularning dars davomida charchoq va zo'riqlashlarini kamaytirishga, psixologik holatini me'yorlashtirishga xizmat qiladigan muhitni yaratadi. Art-pedagogik yondashuv doirasida qo'llaniladigan badiiy materiallar, o'quvchilar tomonidan atrof-muhitni idrok etish, obrazli fikrlash, hamda ijodiy faoliyat orqali bilim olish jarayonini faollashtirishga xizmat qiladi. Natijada, ta'lim jarayonida badiiy ifoda vositalarini joriy etilishi o'quvchilarning ruhiy holatini me'yorlashtirish, o'qish jarayoniga qiziqishini orttiradi va estetik tarbiyani yanada rivojlantirish imkonini yaratadi.

San'atning vazifalari va tabiati fanlararo yondashuv orqali chuqur tahlil qilinishi, shuningdek, uning turli shakllari va vositalarini pedagogik resurs sifatida birgalashtirish – ta'lim jarayonini takomillashtirishning muhim omillaridan biridir. San'at va pedagogika, xususan art-pedagogika faoliyatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik estetik tarbiya, kommunikativ kompetensiya muhitini yaratish hamda san'at vositalarining didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga chiqaradi.

San'at insonning hissiy holati, xulq-atvori, estetik didi, kognitiv faoliyat, hissiy ong va ongsizlik bilan bog'liq psixik holatlarga ta'sir qilishi orqali san'at pedagogik jarayonda sezilarli rol o'ynaydi. Bu esa san'atni ta'lim jarayoniga integratsiyalash va shunga asoslanib o'quvchi yoshlarning ijodiy rivojlanishiga zamin yaratish imkonini beradi [1].

**Asosiy qism.** San'at va pedagogikaning integratsiyalanishi o'tmish tajribalarga tayangan holda tahlil qilinganda, art-pedagogika mustaqil ilmiy-pedagogik yo'nalish sifatida shakllanayotganini ko'rish mumkin. Bu esa uning o'ziga xos prinsiplari va metodologik asoslarni shakllantirishda asos bo'lib xizmat qiladi. Art-pedagogika – bu san'at vositalari yordamida estetik tarbiya, kasbiy kompetensiyalar va ta'limiy maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvdir. Mazkur yo'nalishning ustuvor vazifalaridan biri – o'quvchilarning badiiy ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularni rag'batlantirish, shuningdek, axloqiy va estetik tarbiyani o'zaro integratsiyalashgan tizim asosida shakllantirishga qaratilgan faoliyatdir [2].

Tahlil etilgan mulohazalar art-pedagogikaning zamonaviy ta'limdagi dolzarb muammo ekanligini va uni har tomonlama o'rganish ehtiyojini ilgari suradi va o'ziga xos qiziqarli va istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonida art-pedagogik metodlardan foydalanish o'quvchilar tomonidan hech qanday psixologik yoki metodik to'siqsiz qabul qilinishi bilan ajralib turadi.

Aksincha, bunday yondashuv ularning darsga bo'lgan qiziqishini oshirib, ijobiy emotsional muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Art-pedagogik yondashuv faqatgina san'at darslari doirasidagina emas, balki boshqa umumta'lim fanlari jarayonida ham qo'llash pedagogik jarayonni boyitadi. Bunda asosiy masala – art-pedagogik usullarni qanday, qayerda va qaysi pedagogik maqsad asosida qo'llash zarurligini aniq belgilab olishdan iborat. San'at fanlarini faqatgina qo'shimcha ta'lim shakli sifatida talqin qilish to'g'ri fikr emas. Aslida, art-pedagogikani har qanday pedagogik tashkilotning asosiy o'quv faoliyati bilan uyg'unlashtirgan holda, keng qamrovli tarbiyaviy va didaktik imkoniyatlarga ega bo'lgan yondashuv sifatida e'tirof etilishi zarur.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda o'quvchilarni ta'lim jarayoniga jalb etish, ularning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish uchun innovatsion metodlar va yangicha pedagogik yondashuvlar zaruriyatini tug'dirmoqda. Ta'limda faqat bilim emas, balki dunyoni estetik, badiiy va ma'naviy idrok etishga xizmat qiluvchi ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, art-pedagogikaning O'zbekiston ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi hamda bosqichma-bosqich rivojlanib borishi yuqorida tilga olingan muammolarni yumshatishga xizmat qilmoqda. Mazkur yo'nalishda ilmiy-tadqiqot ishlarining olib borilayotgani, xorijiy va milliy tajribalarning chuqur o'rganilishi asosida o'quv qo'llanmalari, darsliklar va metodik tavsiyalar tayyorlanayotgani art-pedagogikaning amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Art-pedagogika o'quvchilarning estetik tarbiyasi va o'quvchilarning ijodkorlik salohiyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu yondashuv nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki o'quvchilarning ichki dunyosiga kirib borish, ularning individual qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish imkonini beradi. San'at orqali ta'lim berish o'quvchilarda ijobiy fikrlash, obrazli tafakkur, tasavvur, estetik did va shaxsiy intellektual qobiliyatlarni shakllantirishga yordam beradi. Mazkur yondashuvning afzalligi shundaki, u o'quvchini passiv bilim egallovchidan ko'ra, o'zini anglay oladigan, ichki dunyosini ijodiy ifodalaydigan faol shaxs sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi. Art-pedagogika – bu ijodiy faoliyat vositasida ta'lim va tarbiya jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuv bo'lib, u o'ziga xos maqsad va vazifalarga ega. Uning asosiy mohiyati o'quvchilarning yashirin qobiliyatlarini aniqlash, ularning ichki dunyosini ochib berish va bu orqali shaxsiy salohiyatni badiiy ijodiy faoliyat asosida rivojlantirishdan iborat.

Birinchidan, art-pedagogika o'quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodlar yordamida o'quvchilar nafaqat san'at bilan shug'ullanadilar, balki hayotga nisbatan yangicha yondashuvni ham egallaydilar. Bu esa ularga turli holatlarga mustaqil, tanqidiy va ijodiy qarash imkonini yaratadi.

Ikkinchidan, art-pedagogik yondashuv estetik didni rivojlantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. San'at asarlari orqali o'quvchilarda go'zallikni idrok etish, estetik qadriyatlarni anglash va ularni hayotda tatbiq etish ehtiyoji

shakllanadi. Bu nafaqat san'atga, balki atrof-muhit va tabiatga bo'lgan estetik munosabatni ham mustahkamlaydi.

Uchinchidan, art-pedagogika orqali o'quvchilarda axloqiy-me'yoriy tushunchalar rivojlanadi. San'at vositasida adolat, vijdon, halollik, insonparvarlik kabi qadriyatlar o'zlashtiriladi. Ushbu yondashuv bolalarda boshqalarga hamdardlik bilan munosabatda bo'lish qobiliyatini kuchaytirib, ularni ijtimoiy jihatdan faol va axloqan yetuk shaxslar sifatida voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, art-pedagogik metodlar o'quvchilarning o'z fikrlarini erkin, badiiy va obrazli shaklda ifoda etish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu ularda o'zini anglash, o'z fikrini bayon etish, his-tuyg'ularini boshqalar bilan bo'lishish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Ayniqsa, umumta'lim maktablarida san'atga asoslangan pedagogik metodlardan samarali foydalanish o'quvchilarning dars jarayoniga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish, ularning san'atga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirish hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bunday vositalarning qo'llanilishi o'quvchilarda san'atga aloqadorlik hissinı uyg'otadi, ularni mustaqil fikrlashga, yangi g'oyalarni izlab topishga va o'z individual salohiyatini namoyon qilishga undaydi. Natijada, maktab darslari nafaqat bilim olish, balki shaxsiy taraqqiyot va estetik tarbiyaning asosiy maydoniga aylanadi. Bugungi kunda umumta'lim maktablarida san'at fanlari, asosan, amaliy mashg'ulotlar, izohli bayon, tasviriy namunalar orqali o'tilmoqda. Mashg'ulot jarayonida o'quvchilar tasviriy san'at, musiqa hamda xalq ijodining amaliy yo'nalishlari bilan yoki me'moriy elementlar bilan tanishtiriladi. Ba'zi o'qituvchilar ta'lim jarayoniga interaktiv metodlar, vizual materiallar, didaktik o'yinlar va ijodiy topshiriqlarni qo'shishga intilayotgan bo'lsalar-da, bu holat hali keng miqyosda amaliyotda qaror topmagan. O'tkazilgan kuzatuvlar va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, ko'plab maktablarda san'at fanlari orqali estetik tarbiya jarayoni yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. O'qituvchilarning aksariyati art-pedagogikaning metodik imkoniyatlari va uning estetik fazilatlarini shakllantirishdagi o'rmini chuqur anglab yetmagan. Natijada darslarda nazariy yondashuvlar ustunlik qilib, o'quvchilarning ijodiy salohiyati to'laqonli rivojlanmayapti.

Jumladan, art-pedagogikaning teatr, dramatizatsiya, improvizatsion harakatlar, musiqiy ifoda, tasviriy faoliyat bilan integratsiya kabi vositalari ta'lim jarayonida kam qo'llanmoqda. Ko'plab hollarda darslar an'anaviy shaklda o'tilib, o'quvchilarda estetik did, obrazli tafakkur, tasavvur va go'zallikni idrok etish ko'nikmalari yetarlicha shakllanmayapti. Shu bois, zamonaviy maktab ta'limida art-pedagogik yondashuvlarni tizimli asosda joriy etish, o'qituvchilarning kasbiy va metodik tayyorgarligini oshirish, estetik tarbiyani barcha san'at turlari bilan birgalikda qo'llash muhim dolzarb vazifa sifatida e'tirof etiladi. Hozirgi kundagi ta'lim jarayonida o'quvchilarda estetik tarbiyani shakllantirish yo'lida muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, tasviriy san'at, musiqa, mehnat ta'limi, ona tili va adabiyot kabi fanlar orqali o'quvchilarda go'zallikni his etish, obrazli fikrlash, did va estetik munosabatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ko'nikmalar shakllantirilishi maqsad qilingan. Estetik tarbiyani kuchaytirish maqsadida ta'lim muassasalarida

turli ijodiy va madaniy shakldagi faoliyat turlari — ko'rgazma, sahna chiqishlari va musiqiy mashg'ulotlar orqali o'quvchilarning san'atga bo'lgan qiziqishi faollashtirilmogda. Bu kabi tashabbuslar o'quvchilarning estetik qiziqishini oshirish, ularni ijodiy ishlarga yo'naltirish va san'atga daxldorlik hissini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmogda.

O'rganilgan nazariy manbalar va mavjud amaliy tajriba asosidagi o'rganilgan ma'lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, hozirgi kunda maktablarda san'at fanlarini o'qitish ko'pincha an'anaviy metodlarga tayangan holda amalga oshirilmogda. Darslarda, asosan, izohli bayon, ko'rgazmali vositalar va amaliy mashg'ulotlar qo'llaniladi. Ba'zida o'qituvchilar dars jarayonida interaktiv metodlar, ko'rgazmali vositalar va ijodiy faoliyat elementlaridan foydalanishga intilishadi. Ammo ularning muntazam va kompleks qo'llanilishi hali to'liq yo'lga qo'yilmagan. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari ko'rsatkishlari o'quvchilarning "estetik tarbiya", "san'at", "go'zallik" kabi tushunchalarga nisbatan munosabatlari va ularni anglash darajasi yetarli emasligi aniqlandi. Ayniqsa, kichik yoshdagi sinflarda, shuningdek, chekka hududlardagi maktablarda estetik tushunchalarning shakllanish darajasi pastligi kuzatildi.

Ba'zi holatlarda o'quvchilar "san'at" va "estetika" tushunchalarini boshqa fanlar yoki faoliyat turlari bilan chalkashtirgani ham qayd etildi. Shunga qaramay, dars jarayoniga art-pedagogik usullar kiritilgan hollarda o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishi, bilimni o'zlashtirish darajasi va estetik idroki sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Bu esa san'at vositalari orqali estetik tarbiya berishda art-pedagogik yondashuvlarning pedagogik samaradorligini amaliy jihatdan ko'rsatib beradi [3].

**Xulosa.** Art-pedagogika ta'limning zaruriy tarkibiy qismi bo'lib, u o'quvchilarning estetik, ijodiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning asosiy pedagogik konsepsiyasi va metodik yondashuvlarini hozirgi davr ehtiyojlari asosida yangilab borish — bu yondashuv ta'lim jarayonining sifat ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va va yoshlarning ma'naviy jihatdan kamol topishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu tariqa, art-pedagogika nafaqat san'at ta'limiga xizmat qiladi, balki zamonaviy ta'lim maqsadlariga erishishda — shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning ichki olami va estetik didini boyitish, ijtimoiy faol va madaniyatli fuqaro sifatida shakllantirishda keng pedagogik imkoniyatlar eshigini ochadi.

#### **Adabiyotlar**

1. Amonov R. Estetik tarbiya nazariyasi va metodikasi. — Toshkent: «O'qituvchi», 2019.
2. Egamberdiyeva F. San'at va ta'lim integratsiyasi. // Ilmiy ishlar to'plami. 2022. — 3(7). 10-17-b.
3. Abduqodirova N. Art-pedagogikaning did tarbiyasidagi o'rni. // «Pedagogika va psixologiya» jurnali. 2022. №3.

**REZYUME.** Maqolada maktab ta'limi jarayonida art-pedagogik yondashuvlardan foydalanishning estetik tarbiya bilan bog'liq jihatlari tahlil etilgan. Unda o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, san'atga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish hamda estetik dunyoqarashni boyitishda art-pedagogikaning metodik imkoniyatlariga e'tibor qaratilgan. O'rganilgan amaliy kuzatuvlar asosida darslarda san'at vositalaridan foydalanishning ijobiy natijalari ko'rsatilib, ushbu yondashuvni umumta'lim maktablarida joriy etishning dolzarbligini asoslantirilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В статье рассматриваются особенности применения арт-педагогического подхода в процессе школьного обучения с целью формирования эстетического воспитания. Раскрываются педагогические возможности искусства в развитии творческих способностей учащихся, формировании эстетического восприятия и повышении интереса к искусству. На основе практических наблюдений показана эффективность использования художественных средств на уроках, обоснована необходимость внедрения арт-педагогических методов в систему общего среднего образования.

**SUMMARY.** This article explores the application of art-pedagogical approaches in general school education as a means of fostering aesthetic development. It highlights the potential of art to enhance students' creativity, stimulate their interest in artistic activities, and broaden their aesthetic worldview. Based on practical observations, the effectiveness of integrating artistic tools into lessons is analyzed, and the relevance of introducing art-pedagogical methods into the general education system is substantiated.

#### **JASALMA INTELLEKTEN PAYDALANÍWDA JÚZEGE KELETUĞÍN AYÍRÍM MASHQALALAR**

**B.B.Prenov** – fizika-matematika ilimleriniń doktori, professor

**B.J.Atabaeva** – assistent oqıtıwshı

*Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı*

**Tayanch so'zlar:** sun'iy intellekt, oliy ta'lim, individuallashtirilgan ta'lim, muammolar, texnologik muammolar, ijtimoiy va axloqiy muammolar, pedagogik muammolar, huquqiy muammolar, ta'lim texnologiyalari.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, высшее образование, персонализированное обучение, проблемы, технологические проблемы, социальные и этические проблемы, педагогические проблемы, правовые проблемы, образовательные технологии.

**Key words:** artificial intelligence, higher education, personalized education, problems, technological problems, social and moral problems, pedagogical problems, legal problems, educational technologies.

**1. Kirisiw.** Sońǵı jıllarda jasalma intellekt (JI) texnologiyalarınń tez rawajlanıwı hár qıylı tarawlarda, ásirese, bilimlendiriw, medicina, óndiris hám ekonomikada

úlken imkaniyatlar jaratpaqta. Biraq bul texnologiyalardı engiziw barısında hár túrli mashqalalar da júzege shıqpaqta. Bul mashqalalar texnologıyalıq, pedagogikalıq, huqıqiy